O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Uzun tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 7-uy, 191100, tel.: (+99876) 44-73-545, uzun.t@exat.uz

2021 - yil 23 - oktabr 166-8-118-Q/21 Uzun tuman hokimligi

Davlat o‘rmon fondi erlarida yong‘in xavfini oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida

2021 yilda Davlat o‘rmon fondi va Qo‘riqxona erlarida yong‘in kelib chiqishining hamda tabiatga va o‘simlik dunyosiga zarar etkazilishining oldini olish maqsadida, Bobotog‘ davlat o‘rmon xo‘jaligining 2021 yil 30 maydagi 01/464sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 22 noyabrdagi “Respublika o‘rmonlarini himoya qilish bo‘yicha ayrim me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-sonli qaroriga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN

1. 2021-2026 yil yong‘in xafsizligi mavsumlarida (yoz, kuz fasllarida) Davlat o‘rmon fondi erlarida, qo‘shni fermer xo‘jaliklari hamda fuqarolar yig‘inlari hududida joylashgan o‘rmonlarda tamaki mahsulotlari chekish, ov qilish hamda gulxan yoqish qat’iyan man qilinsin.

2. Bobotog‘ davlat o‘rmon xo‘jaligi bo‘limlarida yong‘inga qarshi kurash tadbirlari 1-ilovaga, favqulodda holatlarda yong‘inni o‘chirish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bobotog‘ davlat o‘rmon xo‘jaligi (O.Jabborov), Fayzova, Xazratbobo, Duxona, Chagam, Qoratog‘, Ozod o‘rmon bo‘limlari (B.Qoraboev), (A.Abduxamidov) (G.Bekmurodov) (A.Turakulov), (M.Muxammadiev), (Z.Murodov) Serxarakat MFY, Fayzovod MFY, Ozod MFY, Toltug‘ay MFY,

Bobotog‘ MFY Oqmachit MFY Yangiobod MFY raislari yong‘in xavfini oldini olish bo‘yicha barcha tadbirlarni o‘tkazishga shaxsan mas’ulligi belgilab qo‘yilsin.

4. Bobotog‘ davlat o‘rmon xo‘jaligi (O.Jabborov), tuman FVB , tuman tibbiyot birlashmasi , “O‘ztelekom” AK Uzun tuman filiali Fayzova, Xazratbobo, Duxona, Chagam, Qoratog‘, Ozod o‘rmon bo‘limlari ((B.Qoraboev), (A.Abduxamidov) (G.Bekmurodov) (A.Turakulov), (M.Muxammadiev), (Z.Murodov)), Serxarakat MFY, Fayzovod MFY, Ozod MFY, Toltug‘ay MFY, Bobotog‘ MFY, Oqmachit MFY, Yangiobod MFY raislari birgalikda Davlat o‘rmon fondi erlarida yong‘in sodir bo‘lganda tezda kechiktirmasdan yong‘inni o‘chirish uchun etarli odamlarni jalb qilish va ularni asbob-uskunalar va oziq-ovqatlar bilan ta’minlash hamda tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish vazifalari topshirilsin.

5. Bobotog‘ davlat o‘rmon xo‘jaligi (O.Jabborov), tuman tabiatni muhofaza qilish inspektsiyasi, tumandagi Serxarakat MFY, Fayzovod MFY, Ozod MFY, Toltug‘ay MFY, Bobotog‘ MFY, Oqmachit MFY, Yangiobod MFY raislari o‘rmon xo‘jaligi er fondi erlariga yaqin joyda yashayotgan aholiga o‘rmon xo‘jaligi er fondi erlarida yong‘inni oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish hamda “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan hujjatlarni rasmiylashtirib, tegishli organlarga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

6. Mazkur qaror OAVda e’lon qilinsin.

7. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari N.Majidov zimmasiga yuklatilsin.

Hokim **Tursunov B. B.**

Узун туман ҳокимининг
2021 йил 23 октябрдаги
166-8-118-Q/21-сон қарорига
1-илова

Bobotog‘ davlat o‘rmon xo‘jaligi Davlat o‘rmon fondi erlarida yong‘inga qarshi kurashish chora-tadbirlari

№	Amalga oshiriladigan ishlar	Bajarish muddati	Bajarishga mas’ul
1	O‘rmonlarda va o‘rmon bilan qoplangan Davlat o‘rmon fondi erlarida yong‘in xavfsizligini ta’minlash uchun shaxsan javobgarlikni xis etish, yong‘in bo‘lishi ehtimoli kuchli davrda belgilangan yong‘in xavfsizligi ishlarini bajarish, Davlat o‘rmon fondi erlarida chiqqan yong‘inni tezkorlik bilan uchirish va bu to‘g‘risida Bobotog‘ davlat o‘rmon xo‘jaligiga xabar qilish	Mavsum davomida	Barcha o‘rmonchilik bo‘limi o‘rmonbegilari va ishlab chiqarish uchastka boshliqlari
2.	O‘t-ulan bilan qoplangan erlarda. Qamishzor va o‘rmonzorlar yaqinida, shamolli ob-havoda gulxan yoqishni ta’qiqlash, yonib turgan narsalarni tashlash uchun maxsus joylar tashkil qilish	Mavsum davomida	Bosh o‘rmonbegi, o‘rmon Muxandisi, barcha o‘rmonchilik bo‘limi o‘rmonbegilari va ishlab chiqarish uchastka boshliqlari
3	Davlat o‘rmon fondi erlarida yong‘in chiqishi xavfi bor hududlarda suv idishlari suv to‘ldirilgan holda (kichik va katta hajmli suv idishlari) joylashtirish	Mavsum davomida	Barcha o‘rmonchilik bo‘limi o‘rmonbegilari va ishlab chiqarish uchastka boshliqlari
4	Davlat o‘rmon fondi erlarida yong‘in chiqqan holda yong‘in chiqqan joyda ko‘ngilli yong‘in o‘chirish bo‘linmalarini, belgilangan yong‘in uchirish ishchi kuchlarini o‘z vaqtida etkazish, texnikalar bilan ta’minlashni to‘g‘ri va aniq tashkil qilish	Mavsum davomida	Bosh o‘rmonbegi, o‘rmon Muxandisi
5	Chorva mollari boqiladigan, ov qilinadigan, beda o‘riladigan o‘rmonlarda, bolalar oromgohlarida, dam olish zonalarida, yong‘in uchirish qurollarini bo‘lishini nazorat qilish, Davlat o‘rmon fondi erlariga yaqin erlarda va unga olib boruvchi yo‘llar yoqasiga olovdan ehtiyotlik bilan foydalanishga chaqiruvchi yong‘in chiqish xavfidan ogohlantiruvchi belgilarni qo‘yish	Mavsum davomida	O‘rmon Muxandisi, bo‘lim o‘rmonbegilari va o‘rmonchilari
6	Yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzuvchilarni tezkorlik bilan aniqlash, ularni ustidan zudlik bilan bilan tegishli xujjatlarni tuzib, keltirilgan zararni undirib olish choralarini ko‘rish, yong‘inga qarshi kurash maqsadida tezkorlik bilan harakat qiluvchi guruh tuzish, uni harakat yo‘nalishini belgilash va shu mavzuda seminar tashkil qilish	Mavsum davomida	Bosh o‘rmonbegi, o‘rmon Muxandisi, barcha o‘rmonchilik bo‘limi o‘rmonbegilari va ishlab chiqarish uchastka boshliqlari, bo‘lim o‘rmonchilari

Узун туман ҳокимининг
2021 йил 23 октябрдаги
166-8-118-Q/21-сон қарорига
2-илова

2021 yilda Bobotog‘ davlat o‘rmon xo‘jaligining Fayzova, Xazratbobo, Duxona, Chagam, Qoratog‘, Ozod o‘rmon bo‘limlarida favqulodda holatlarda yong‘inni o‘chirish

R E J A S I

T/p	Узун тумани	Жойлашган аҳоли		Ёнғинга қарши ўчириш асбоблари			Ўрмон бўлимларининг номи	Техника-лар сони	Шундан сув гашиш машинаси
		Жами	Шундан ёнғин ўчиришга қатнашади	Болта	Арра	Белкурак			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Серхаракат МФЙ	8543	600	150	150	300	Сиёб	1	1
2	Файзобод МФЙ	4170	400	100	110	190	Деновболо Қавзахона Матмон Жовуз	7	1
3	Озод МФЙ	5168	450	150	120	180	Мингчинор	2	1
4	Толтуғай ва Боботоғ МФЙ	5443	475	160	125	190	Ҳазрати Башир	2	1
5	Оқмачит ва Янги обод МФЙ	12774	1200	300	400	500	Макрид	1	1

Керакли нарсалар юбориладиган жойлар	**Тиббий ёрдам кўрсатилишини ташкил этишда жавобгар шахс**	**Ёнғин бўладиган жойларда алоқани тиклаш бўйича жавобгар шахс**	**Ўрмон бўлими бошлиқларининг И.Ф.О**	**Ёнғинни ўчириш бўйича жавобгар шахс**	**Техника ва ёнғин ўчириш асбоб-ускуналарини олиш жойи**
11	**12**	**13**	**14**	**15**	**16**
Фуқаролар йиғинлари, Фермер хўжаликлари	Туман Тиббиёт бирлашмаси	“Ўзтелеком” АК Узун туман филиали	Б.Қорабоев А.Абдихамидов Г.Бекмуродов А.Туракулов М.Мухаммадиев З.Муродов	Ўрмон инспектори Ф.Ҳайдаров, Ўрмон инспектори М.Турдиев	Ўрмон хўжалиги, Маҳалла ва қишлоқ фуқаролар йиғинлари, ҳамда фермер хўжаликлари омборлари